



XALQ DEPUTATLARI O'ZBEKISTON TUMANI KENGASHI QARORI

2023 - yil 20 - sentabr

VI-71-98-11-161-K/23

O'zbekiston tuman hokimligi

Tuman hududida yangi mahalla fuqarolar yig'inlarini tashkil etish to'g'risida

Tumandagi "Qulibek" mahalla fuqarolar yig'ini vakillar yig'ilishi tomonidan fuqarolarning iltimosnomasiga asosan mahalla fuqarolar yig'ini hududlarida qishloqlarni geografik joylashish tartibiga ko'ra yangi mahalla fuqarolar yig'inlarini tashkil etish yuzasidan takliflar bildirilgan.

«Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (*O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi*, 24.07.2018 y., 03/18/486/1559-son, 16.10.2018 y., 03/18/498/2051-son, 21.12.2018 y., 03/18/506/2356-son; 05.09.2019 y., 03/19/563/3685-son, 11.09.2019 y., 03/19/566/3734-son)ga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 04.03.2014 yil kungi "Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 48-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Nizom (*O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami*, 2014 y., 10-son, 107-modda; 2017 y., 35-son, 931-modda; *Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi*, 12.04.2019 y., 09/19/302/2924-son)ga, "Geografik ob'yektlarning nomlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining qonuni (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011 y., 41-son, 448-modda; 2017 y., 35-son, 914-modda)ga muvofiq, tumandagi "Qulibek" mahalla fuqarolar yig'inining iltimosnomasi, vakillar yig'ilishi qarorini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuni (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi*, 1993 y., 9-son, 320-modda)ning 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari O'zbekiston tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Tumandagi "Qulibek" mahalla fuqarolar yig'inining 2023 yil 3 may kungi 5-

sonli “Qulibek” MFY tassarrufiga kiruvchi Alisher Navoiy shox ko‘chasi, Konizar, Olimpiyada, Shifokorlar, Mevazor, Farg‘ona, Farobiy, Amir Temur, Nihil, Navro‘z, Mustaqillik, O‘zbekiston, Ibn Sino, G‘alba, Mirzo Ulug‘bek, Tinchlik, Qulibek, J.Boltaboyev, Zavqiy, Bunyodkor, Konisstitutsiya, Murabbiylar, Yangi yaypan ko‘chalarini joylashish tartibiga ko‘ra **ikkita alohida MFYlarga bo‘lish** to‘g‘risida”gi Iltimosnomasi, Iltimosnomaga muvofiq “Qulibek” mahalla fuqarolar vakillar yig‘ilishining 2023 yil 3 may kungi 5-sonli qaroriga asosan MFY hududidagi **Alisher Navoiy shox ko‘chasi, Konizar, Olimpiyada, Shifokorlar, Mevazor, Farg‘ona, Farobiy, Amir Temur, Nihil, Navro‘z, Mustaqillik, O‘zbekiston, Ibn Sino, G‘alba, Yangi yaypan** ko‘chalari aholi biriktirilgan qismida alohida MFY tashkil etish to‘g‘risidagi takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi “Qulibek” mahalla fuqarolar Kengashining hududda 1020 ta xonadon bo‘lganligi munosabati bilan 2023yil 3 may kungi 5-sonli qaroriga asosan MFY hududidagi **Alisher Navoiy shox ko‘chasi, Konizar, Olimpiyada, Shifokorlar, Mevazor, Farg‘ona, Farobiy, Amir Temur, Nihil, Navro‘z, Mustaqillik, O‘zbekiston, Ibn Sino, G‘alba, Yangi yaypan** ko‘chalari aholi biriktirilgan qismida alohida MFY tashkil etish, mazkur yangi mahalla fuqarolar yig‘iniga “**Konizar**” nomini berish to‘g‘risidagi takliflari hamda tuman yer resurslari va davlat kadastr bo‘limi tomonidan ishlab chiqilgan yangi sxematik xaritalar ma’qullansin va tasdiqlansin.

3. Yuqoridagi bo‘lish yo‘li bilan tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘iniga berilayotgan nom yuzasidan Geografik ob‘yektlarga nom berish va ularni nomini o‘zgartirish bo‘yicha Farg‘ona viloyati hamda tuman komissiyalari tomonidan ijobiy xulosalar berilganligi inobatga olinsin.

4. Kambag‘allikni qisqartirish va banlikni ta’minlash tuman bo‘limi boshlig‘i (E.Bozorov) yangi tashkil etilgan “Konizar” mahalla fuqarolar yig‘inida mahalla fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovini tashkil etish hamda o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruhlar tomonidan “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuning 15-moddasida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishiga ko‘maklashsin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi, Davlat soliq inspeksiyasi, tuman Statistika bo‘limi, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi raxbarlariga:

- mahallalarni bo‘linishi munosabati bilan tegishli hududda yashovchi fuqarolarning fuqarolik pasportlariga, soliq, statistika hisobotlari va boshqa tegishli

idoraviy xujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish, qo‘srimcha shtat birliklarini ajratish va moliyalashtirish masalalarini hal etish vazifalari topshirilsin.

6. “Yaypan ovozi” gazetasi taxririysi (I.Maxkamov), tuman hokimligi Axborot xizmati (D.Jabborov) mazkur qaror rasmiy e’lon qilishi va hokimlik rasmiy veb saytiga joylashtirish ta’mirlansin.

7. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kuni kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman Kengashining Axborot siyosati va mahalliy davlat organlarida ochiqlikni ta’minlash masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Imomov), hamda Kambag'allikni qisqartirish va banlikni ta’minlash tuman bo‘limi boshlig‘i (E.Bozorov) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



III.Юлдашев